DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-06-09-28 **Pages: 214-222**

Oriental Journal of Social Sciences

ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojss

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE PHENOMENON OF COMMUNICATION

Mutallib Amirkulovich Rakhimov
Independent Researcher at Sharof Rashidov Samarkand State University
E-mail: m.rakhimov@mail.ru
Science ID: FSN-0426-0129
Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Reading culture, reading, free thinking, creative thinking, personal development, spiritual maturity, philosophical-axiological approach.

Received: 20.09.26
Accepted: 21.09.26
Published: 22.09.26

Abstract: This article analyzes the role of the culture of reading in the personal and social development of a modern person from a philosophical and pedagogical point of view. Communication is considered not only as a means of acquiring knowledge, but also as a complex cultural phenomenon that stimulates the processes of free thinking and creative thinking. The culture of communication is further socialized through reading and is a complex cultural process that has formed in social life after the period of early literacy, when people try to understand the world they live in through sources and with the help of scientific methods of knowledge. Communication and its manifestations are scientifically analyzed in this article.

MULOQOT FENOMENINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Mutallib Amirqulovich Raximov
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
m.rakhimov@mail.ru
Ilmiy identifikatsiya raqami: FSN-0426-0129
Samarqand, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Mutolaa madaniyati, kitobxonlik, erkin fikrlash, ijodiy tafakkur,

Annotatsiya: Mazkur maqolada mutolaa madaniyati zamonaviy insonning shaxsiy va

shaxsiy rivojlanish, ma’naviy kamolot, falsafiy-aksiologik yondashuv.

ijtimoiy rivojlanishidagi o‘rni falsafiy va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Muloqot nafaqat bilim olish vositasi sifatida, balki erkin fikrlash va ijodiy tafakkur jarayonlarini rag‘batlantiruvchi murakkab madaniy fenomen sifatida ko‘rib chiqiladi. Muloqot madaniyati mutoalaa orqali yanada ijtimoiylashadi va ijtimoiy hayotda ilk savodxonlik davridan so‘ng shakllangan murakkab madaniy jarayon bo‘lib, insonlar o‘zi yashayotgan olamni manbalar orqali, ilmiy bilish metodlari yordamida anglashga harakat qiladilar. Muloqot va uning ko’rinishlari ushu maqolada ilmiy tahlil qilingan.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФЕНОМЕНА КОММУНИКАЦИИ

Муталлиб Амиркулович Рахимов
Независимый исследователь
Самаркандского государственного университета имени Ш. Рашидова
E-mail: m.rakhimov@mail.ru
Научный идентификационный номер: FSN-0426-0129
Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Культура чтения, чтение, свободное мышление, творческое мышление, личностное развитие, духовная зрелость, философско-аксиологический подход.

Аннотация: В данной статье анализируется роль культуры чтения в личностном и социальном развитии современного человека с философско-педагогической точки зрения. Коммуникация рассматривается не только как средство приобретения знаний, но и как сложный культурный феномен, стимулирующий процессы свободного и творческого мышления. Культура коммуникации далее социализируется посредством чтения и представляет собой сложный культурный процесс, сформировавшийся в общественной жизни после периода ранней грамотности, когда люди пытаются понять окружающий мир через источники и с помощью научных методов познания. В данной статье научно анализируются коммуникация и её проявления.

Kirish. Bugungi kunda diyorimizda muloqot madaniyati borasida keng ko‘lamdagi islohotlar amalga oshirildi. Muloqot madaniyati aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur

tarzidan, an’analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. O‘zbek xalqiga xos shirinsuxanlik, xushmuomalalik, ochiq ko‘ngillilik, rahmdillik va samimiylik tuyg‘usi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning mezoni hisoblanadi. Muloqot madaniyatining shakllanishiga xalqimizning milliy an’analari va urf-odatlari o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Suqrot o‘zining asosiy falsafiy g‘oyalarini og‘zaki aytgan holda umumiy omma ixtiyoriga yetkazib bergan. U o‘zing falsafiy fikrlarini monolog shaklida emas dialog shaklida olib borgan. Bunda suhbatdosh bilan muloqot qilish ortidan o‘zaro fikirlar qarama-qarshiligini yuzaga kelgan va baxs-munozara orqali haqiqatni yuzaga chiqarish shartligini ta’kidlagan. Suqronning fikricha muloqot jarayonida kamtarlik, adolatlilik, mardlik, yaxshilik, haqiqat, reallik va shu kabi tushunchalarni tahlil yetish yordamida vujudga keladigan tushunish mustahkam va o‘zgarmasdir. Biz tushunchalarni tahlil etar ekanmiz narsalarni aslida qanday holda bo‘lishini idrok qilishimiz mumkin. Muloqot davomida mavjud narsa va qadriyatlarning ijobiy tomonlarini anglash adolatga yo‘g‘rilgan g‘oyalarni to‘g‘ri idrok yetishga qaratilgan bilimlar olish nazarda tutiladi. Suqrot odamlar bilan suhbatlashar ekan insonlarning qilayotgan ishlari hayotiy holatini o‘ylashga ularning amallari, so‘zlarini, belgilagan asosiy tamoyillar va qarashlari haqida fikr yuritishga majbur etishga urungan.

Aflotun esa dialoglarida inson munosabatlarini jonli va nisbatan oddiy ko‘rinishda aks ettirishga harakat qiladi va uning dialoglarida uzil-kesil xulosalar yo‘q. Odatda Aflotun dialoglarini 3 guruhga ajratib ko‘rsatishadi. 1.Suqrotcha dialoglar 2. Aflotunning yetuklik doktrinasini aks ettiruvchi dialoglar 3. Sungi dialoglar, qonunlar shunga mansubdir. Aflotun odamlarga yetkazmoqchi bo‘lgan falsafiy g‘oyalar biroz murakkabligini quyidagicha bayon qiladi. Falsafa bilimning boshqa sohalaridagi kabi bayon qilishga yo‘l qo‘ymaydi; biroq faqat uning predmeti va shu predmet bilan hayot haqidagi uzoq muddatli suhbatdan keyingina go‘yo to‘satdan dilda ma’shaladan nur chaqnab ketganday bo‘ladi. Aflotun falsafiy g‘oyalarni anglash va shundayligicha hazm qilish inson uchun qiyin ekanligini his etadi. Insondan buning uchun iroda, kuch, g‘ayrat va vaqt talab etiladi. Bu yo‘lda eng muhim jihat boshqa bir haqiqat izlovchilar bilan muloqotga kirishishdir. Aflotun suhbat va munozaralarni insonga haqiqatni bildiruvchi vosita sifatida ko‘radi.

Asosiy qism. Yangi davr faylasuflaridan bo‘lgan Edmund Gusserl Fenomenologik qarashlarida, til butun dunyo o‘rtasida vositachilik qiladi , lekin til faqat vositachi sifatida o‘likdir, deydi. Gusserl inson bir-biri bilan muloqot davomida aytilgan bitta so‘z faqat yagona bo‘lgan ideal qiymat bilan birga keladi deb takidlaydi. Gusserl muloqotni keng ma’noda tushunishini ta’kidlaydi. Bunda keng ma’nodagi muloqat harflar, imo ishoralar va so‘zlarni o‘z ichiga oladigan muloqot shakli ekanligini takrorlaydi.Fenomonologik nuqta’y nazardan muloqot

inson faoliyatining keng doirasini qamrab oladi. Chunki, insonlarning o‘zaro munosabati tizimli asosda shakllangan. Uning harakati, o‘zini tutishi hatto yuz ifodasi ham insonning ichki kechinmalari to‘g‘risida axborot beruvchi vosita hisoblanadi. Buning barchasi muloqotning davomiyligi va uning miqdori bilan uzviy bog‘liqdir.

Muloqat masalasida Xaydeger ta’limotida Gusserlning ayrim qarashlarida o‘xshash elementlarni ko‘rishimiz mumkin. U ham Gusserl’ kabi inson subektiv mohiyatiga e’tibor beradi. Biroq inson o‘z menini anglashida monologik muloqotning ahamiyati mutloqlashtirmagan holda inson bilan inson o‘rtasidagi muloqotning ahamiyatiga ko‘proq e’tibor beradi. Chunki, inson ijtimoiy jonivor sifatida doimo bir biri bilan muloqotda bo‘lishni taqazo etadi. Xeydeger bu munosabtlar inson o‘zligidagi kamchiliklarni aniqlashda yordam berishini va shu bilan birga o‘z menini takomillashtirishi mumkinligini nazarda tutgan. Faylasuf Karl Yaspersning ekzistensializm falsafasida muloqat nazariyasi orqaga tarixan qaytadigan ijtimoiy shartnoma nazariyasiga qarshi kurash sifatida shakllandi, deya takidlagan. Muloqat nazariyasi tarafdorlari (Yaspers, Emanuyel Muniyer,) ta’kidlagandek, ijtimoiy shartnoma bu bitim hisoblanib, bunda barcha ishtirokchilar kelishilgan holda o‘zlari uchun ma’lum qonun-qoidalar tuzadi va uni bajarish barcha uchun majburiyat yukini yuklaydi. O’zaro muloqot qilgan holda qonun-qoidalarga bo‘ysinib faoliyat olib borishni nazarda tutadi. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi yana bir boshqa tarifda esa muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni deyiladi.

Psixolog R.Nemovning ta’kidlashicha “Muloqot deyarli barcha tirik mavjudotlarda uchraydi, lekin inson darajasida muloqot o‘zining oliy ko‘rinishiga erishadi, onglilik, estetiklik va maqsadga yo‘nalganlik kabi jihatlarni qamrab oladi va eng muhimi, nutq vositasida o‘zining eng oliy darajasiga ko‘tariladi” [1]. Muloqotning insonga xos shakli, bu madaniyatlilik, onglilik, axloqiylik jihatlari bilan gavdalanadi.

Muloqot madaniyati inson hayotining barcha xilma-xil ma’naviy va moddiy shakllarini o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda insonlar o‘rtasidagi aloqalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi hamda ularning hayot faoliyatidagi ehtiyojning murakkab jarayoni bo‘lib, o‘zga kishilarni tushunish va idrok etishning hamkorlikdagi strategiyasidir. Inson muloqotsiz yashay olmaydi, “hech kimga sir emas, shaxslararo munosabatlar biz uchun nafas olayotgan havodan kam emas”dir[2]. Haqiqatdan ham, inson o‘zaro muloqot orqaligina yashay oladi. Yolg‘izlik, yoxud, hech kimsa bilan muloqotga kirishmaslik inson hayotini izdan chiqaradi. A.Ya.Kibanov fikricha,

muloqot madaniyati, “birgalikda hayot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda odamlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishning ko‘p qirrali jarayoni”[3] dir. Demak, inson hayoti davomida muloqotga, o‘zaro muomalaga kirishishga, fikr almashinuviga doimo ehtiyoj sezib yashaydi.

Muloqot madaniyati faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Muloqot madaniyati yordamida insonlar tabiatni o‘zlashtirish va o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Har bir jamiyat (va ba'zan uning alohida ijtimoiy guruhlari) muloqotning muayyan tartibga soluvchi tamoyillarini ishlab chiqadi, ular nafaqat u tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarida mustahkamlanadi, balki ko'proq yoki kamroq ongga ega bo'lgan odamlarda ham tarbiyalanadi. Bu muloqot madaniyatining u yoki bu darajasi mavjudligini ta'kidlashga asos beradi. Bu erda madaniyat muloqotdan ko'ra kengroq tushuncha ekanligini ta'kidlaymiz, u odamlar to'plagan barcha moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'z ichiga oladi [4]. Shu bilan birga, madaniyat inson faoliyati usullarini, jamiyat faoliyatining xususiyatlarini tavsiflovchi va ularsiz uning mavjudligi mumkin bo'lmagan shakllar, uslublar va normalar doirasini o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish, dam olish, muloqot qilish madaniyati haqida gapirish mumkin, bu bilan "madaniyat" tushunchasining keng ma'nosini ta'minlaydi, bunda madaniyat inson munosabatlarida normalar va ularni amalga oshirish usullarini o'z ichiga oladi. Ammo madaniyatni tushunishning torroq ma'nosi ham borki, u odamlarning muayyan jamiyatda yaratilgan va qabul qilingan muloqot qobiliyatlariga egalik darajasi bilan belgilanadi [5].

Zamonaviy insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida muloqot madaniyati inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, tushunish, hamkorlik hamda ma’naviy aloqaning eng muhim shakli hisoblanadi. Insonning ijtimoiy tabiati uning muloqotsiz mavjud bo‘la olmasligini ko‘rsatadi. Chunki, har bir inson o‘z fikrini ifoda etish, his-tuyg‘ularini baham ko‘rish va boshqalar bilan tajriba almashish orqali jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Shu ma’noda, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni, mutolaa madaniyatini rivojlantirish doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi”[6].

Muloqot madaniyati mutoalaa orqali yanada ijtimoiylashadi va ijtimoiy hayotda ilk savodxonlik davridan so‘ng shakllangan murakkab madaniy jarayon bo‘lib, insonlar o‘zi yashayotgan olamni manbalar orqali, ilmiy bilish metodlari yordamida anglashga harakat qiladilar. Kitob va boshqa yozma mahsulotlarning ishlab chiqarilishi nafaqat bilim almashuv vositasi sifatida, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va madaniy me’yorlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, “Mutolaa hodisasi murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Mutolaaning murakkabligi nimada, birinchidan, mutolaa hissiy bilish

jarayoni, ikkinchidan, voqelikning bilvosita aks etishidir. Mutolaa oddiy harakat emas, chunki, diqqat, idrok, xotira va tafakkur kabi psixologik funksiyalardan iborat murakkab faoliyatdir” [7].

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, muloqot insonning bilish, idrok va tafakkur jarayonlarini chuqurlashtirib, uni o‘z-o‘zini anglash va shakllantirish yo‘lida faol subyektga aylantiradi. Shu bilan birga, u shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlash, tarixiy xotira va madaniy merosni avlodlararo uzatishning asosiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Muloqot, shunday qilib, nafaqat individual intellektual rivojlanish, balki ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyot jarayonining falsafiy poydevorini tashkil etadi. Taniqli sotsiologik olim A.Umarov ta’kidlaganidek, “...mutolaa ko‘nikmasi ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma’lumot olishga yo‘naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o‘zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me’yorlar, ijtimoiy hodisalar asosida yuzaga keladi” [8].

Bugungi kunda esa aynan shu maydon tezkorlik, aniq fikrlash va xavfsizlikni talab qilmoqda. Shuningdek, kitob mutolaasi nafaqat kelajak avlodning ma’naviy-ruhiy olamiga va psixofiziologik dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi, balki avlodlararo pedagogik diqqatni, didaktik yondashuvlarni va ta’lim-tarbiya metodologiyasini shakllantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa, mutolaa madaniyati inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning falsafiy va aksiologik poydevorini tashkil etadi.

Boshqa davrlardan farqli o‘laroq, bugungi kunda mutolaa dunyoni aks ettirish va fikrlash shakli sifatida emas, balki uni faol o‘zgartirish, yangilik yaratish va shaxsning kreativ imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan mutolaa individual erkinlik, shaxsiy mas’uliyat va etik qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, insonni jamiyat va madaniyat bilan o‘zaro aloqada faol subyektga aylantiradi.

Kattalar bilan muloqotda bo'lgan bola nafaqat atrofdagi dunyoning ayrim ob'ektlari nomlarini, balki turli xil narsalarga qanday munosabatda bo'lishni, dunyo qanday ishlashini, odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishni va odamlar bilan qanday muloqot qilishni ham o'rganadi. Til muhitidan tashqarida bola na intellektual, na axloqiy jihatdan rivojlana olmaydi. Muloqot natijasida guruhdagi shaxslar harakatlarining zaruriy tashkil etilishi va birligiga erishiladi, shaxslarning oqilona, hissiy va irodaviy o'zaro ta'siri amalga oshiriladi, his-tuyg'ular, fikrlar va qarashlarning umumiyligi, o'zaro tushunish va harakatlarni muvofiqlashtirish shakllanadi. kollektiv faoliyatni tavsiflovchi yutuqlarga erishiladi [9]. Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga yetkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma’lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma’lum

tartibda aloqaga kirishishga yo‘naltiruvchi, ularning emotsional holatlari (mamnunlik, shodlik, g‘azab, qayg‘u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma’lumotlar o‘tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga yetkaziladi va shaxslararo aloqalar o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, muloqot nafaqat shaxsning ma’naviy-ruhiy kamoloti, balki jamiyatning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun falsafiy-aksiologik poydevor vazifasini bajaradi.. “Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida kitobxonlik kunlari, oliy ta’lim muasssasalarida romanshunoslik badiiy oqshomlari, mahallalarda katta-kichik kutubxonalar tashkil qilindi. Kitob mutolaasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi tanqidiy fikrlovchi, yangi tashabbus va g‘oyalar bilan O‘zbekistonning tiklanishdan yuksalish sari barqaror taraqqiyotini ta’minlashga munosib hissa qo‘shishga tayyor yoshlar tarbiyasini nazarda tutadi”[10]. Muloqot o‘zining maxsus masalalari hal etiladigan ma’lum bosqichlarga ega. Eng muhim bosqich – muloqotni rejalashtirish, o‘zi uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga kirishishdir. Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his yetish, o‘zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo‘nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o‘rnatilishi bilan yakunlanadi. So‘ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi. Keyingi bosqich – motivatsion zondaj. Uning maqsadi – suhbatdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So‘ngra diqqatni mustahkamlash bosqichi boshlanadi, keyin esa fikrlarda nizolilar bo‘lsa, asoslash va ishontirish bosqichi keladi va nihoyat, natijalarni qayd etish bosqichi boshlanadi.

Ma’lumki, muloqot jarayonida asosan, ikki tomon ishtirok etadi. Suhbatdoshning tashqi qiyofasi, o‘zini tutishi asosida tomonlarda tasavvur hosil bo‘ladi. Bir-birini tushunish va idrok qilishning quyidagi mexanizmlari mavjud:

Identifikatsiya – inson o‘zini xayolan suhbatdosh o‘rniga qo‘yish orqali uning nimani o‘ylashi va nimani xohlashini tushunishga intilishdir.

Empatiya – inson o‘zini xayolan suhbatdoshni o‘rniga qo‘yish orqali uning hissiyot va kechinmalarini tushunishga intilish, boshqa shaxslarning ruhiy holatini tan olish va uni his qila olishdir.

Refleksiya – insonning suhbatdoshi tomonidan qanday tushunilayotgani hamda qanday idrok etilayotganligidir.

Yana bir muhim mexanizmlardan biri stereotipizatsiya hisoblanadi. Bunda inson suhbatdoshini tushunishi uchun turli xil shablonlardan foydalanishga harakat qiladi. Stereotipizatsiya ma’lum yoki taxminan ma’lum bo‘lgan voqealarni tiklash, nisbat berish yo‘li bilan xulq normalarini tasniflash va ularning kelib chiqish sabablarini izohlash demakdir.

Ba’zida, muloqot madaniyatida, notug‘ri stereotip ham vujudga keladi. Shu boisdan, inson ichki olamini o‘rganish barcha davrlarda faylasuflarning diqqat markazida bo‘lgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi loyihasining 11-maqsadida “Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini takomillashtirish” muhim vazifa etib belgilangan. Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, fuqarolardan davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, kelib tushgan murojaatlarni tezkor va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlash ko‘zda tutilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, muloqot murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, inson ma’naviy borlig‘ining ajralmas atributi sifatida o‘z-o‘zini tashkil qiluvchi sinergetik fenomen tarzida mavjud. U nafaqat diqqat bilan o‘qish, yozma matnni idrok etish va tushunishga qaratilgan ratsional bilish qobiliyatini rivojlantiradi, balki ijodiy tafakkur, kommunikativ va onto-gnoseologik faoliyatni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Немов Р.С. Психология. Москва. Лит Рес. 2018. - С.118.
2. Hirokawa R.Y. Communications and group decision making. Thousand Oaks, 1996. –P. 185.
3. Кибанов А.Я. Основы управления персоналом. М.: ИНФРА, - М.: 2005. – С. 10-15.
4. Boltaboyev A.A. Muloqot olami: sub'ektlararo munosabatlar muammosi. – T.: O’zMU axborotnomasi, 2019. №2.
5. Kon I.S. Kul’turologiya. Sankt-Peterburg: Lan’, 2021.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ёшлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Азму шижоатли ёшларимиз билан биргаликда янги Ўзбекистонни албатта бунёд этамиз // https://president.uz/uz/lists/view/4463
7. Nurmatova U.J. Mutolaa falsafiy kategoriya sifatida: ontologik va gnoseologik jihatlari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Samrqand, SamDU,2023. -B.8.
8. Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Соц.фан.док... диссертация автореферати. – Тошкент.:2005.– Б.33.

9. Худойқулов Д. Замонавий ахборот маконида ёшлар мутолаа маданиятининг қадриятли-методологик ўзгаришлари // Falsafa va hayot | Философия и жизнь | | Philosophy and life халқаро илмий журнал. –Тошкент, 2020. - №SI-2. –Б.175-176.

10. Soliyev A.L., Kogon M.S. Madaniyat va shaxsiyat. – Toshkent-Moskva-Kazan': Nauka, 2020.

11. Нормаматова М.Н. Постноклассик эпистемология ва виртуалистика. Монография. -Самарқанд, 2015 й.